

Bobobek ibn Abdurahimbiy



Bobobek ibn Abdurahimbiy

(? – taxm. 1753)

(1752-1753)

Minglar sulolasidan bo'lgan Qo'qon xoni. *Abdurahimbiy*ning katta o'gli. Jung'orlar (ba'zi manbalarda qalmoqlar) 1740 yillarda Qo'qonni qamal qilganlarida *Abdurahimbiy* jiyani Bobobekni garov sifatida *oq uylik* qilib dushmanlarga berishga majbur bo'lgan. Bobobek Qo'qon yaqinidagi Qaynar degan qishloqda jung'orlar (qalmoqlar) orasida yashagan va taxminan 1752-1753 yillarda Qo'qon taxtini qalmoqlar nomidan 10 oy boshqargan. 1753 yil beklar kengashi Qo'qon lashkarini O'ratepani egallash uchun jo'natishga qaror qilgan. Qo'shin safarga o'tlanib, Beshariqqa yetganda Bobobek o'ldirilgan.

2023-11-05 19:22:55